

DEHQONOBOD TUMANINING TABIIY-GEOGRAFIK TAHLILI

To'rayev Ulug'bek Murtazoyevich
Qarshi davlat texnika universiteti, t.f.f.d., (PhD)
u.m.turaev7@mail.ru

Mengliqulova Munisa Ergash qizi
Qarshi davlat texnika universiteti 2-bosqich magistranti
munisamengliqulova@gmail.com

Abstract

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanining tabiiy-geografik holati chuqur tahlil qilindi. Ishda tumanning geografik joylashuvi, tabiiy relyefi, iqlim sharoitlari, suv resurslari, tuproq va o'simlik qoplamasi kabi asosiy komponentlar o'rganildi. Hududning tabiiy sharoitlari tuman iqtisodiy rivojlanishida, xususan, qishloq xo'jaligi, chorvachilik va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin egallashi asoslandi. Shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash hamda hududning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: Dehqonobod tumani, ekologik muamolar, iqlim, suv, tuproq, Katta O'ra va Kichik O'ra daryolari, hayvonot dunyosi, tabiiy-geografik holat.


Introduction

Kirish. Hozirgi zamonda insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan hodisalardan biri ekologik vaziyat hisoblanadi. Iqtisodiy-ijtimoiy holatning atrof-muhit bilan o'zaro buzilgan aloqasi odamlar o'rtasida katta tashvish uyg'otmoqda. Insonning tabiiy boyliklarni haddan tashqari ko'p o'zlashtirishi o'simlik va hayvon turlarini, foydali qazilmalar zaxiralarini kamayishiga olib kelmoqda. Suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanishi, chiqindilarning ortib borishi, tuproqning ifloslanishi natijasida aholini ekologik toza oziq-ovqat bilan ta'minlash, energiya va chuchuk suv ta'minoti borgan sari murakkablashib bormoqda. Fan-texnika va texnologiyaning keskin rivojlanishi, sanoat va transport tarmoqlarining tez suratlarda bilan o'sishi tabiiy boyliklardan keragidan ortiq foydalanish, yerlarni o'zlashtirish turli xildagi zaxarli kimyoviy moddalardan uzoq muddatda e'tiborsizlarcha foydalanish kabi hollar ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik muammolarni keltirib chiqardi. Natijada tabiiy muhitda ekologik muvozanatni buzilishiga, ya'ni tuproq, suv, atmosfera havosi tabiiy tarkibini o'zgartirib, turli darajadagi ifloslanishlarga olib keldi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan har bir tuman o'ziga xos tabiiy sharoiti, relyefi va iqlimi bilan ajralib turadi. Shulardan biri — Qashqadaryo viloyatining janubiy qismida joylashgan Dehqonobod tumanidir. Bu hududning fizik-geografik holatini o'rganish, uning tabiiy resurslarini oqilona boshqarish va ekologik muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism.

Geografik joylashuvi. Dehqonobod tumani Qashqadaryo viloyatining janubiy sharqiy qismida joylashgan togʻli hududlardan biridir, u 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan hamda 1962-yil 24-dekabrda Gʻuzor tumani bilan birlashtirilgan. Dehqonobod tumani 1971-yil 31-avgustda qayta tuzildi va tuman maqomini oldi, uning maydoni 4 ming km², aholisi 162,7 ming kishi (2025-yil 1-aprel holatiga koʻra) tashkil etadi, shundan 30,9 mingi shahar aholisi va 131,8 mingi qishloq aholisi hisoblanadi. Tuman aholisining oʻrtacha zichligi 1 km² ga 40,7 kishini tashkil etadi. Tumanda asosan oʻzbeklar, tojiklar, rus, tatar va boshqa millat vakillari yashaydi.

Dehqonobod tumani Oʻzbekiston Respublikasining janubi-gʻarbiy qismida, Qashqadaryo viloyatining eng chekka tumanlaridan biri sifatida joylashgan. Janubda u Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh boʻlib, bu tuman transchegaraviy geografik oʻzaro taʼsirga ham ega [1].



1-rasm. Tadqiqot hududi xaritasi

Relyefi va geologik tuzilishi. Tumanning relyefi murakkab boʻlib, asosan oʻrtacha balandlikdagi togʻlar, past togʻlar, togʻoldi tekisliklardan iborat. Dehqonobod sharqda Boysuntizma togʻlari orqali Surxondaryo viloyati bilan, janubda Torqapchugʻay va unga qoʻshni togʻlari orqali Turkmaniston Respublikasi bilan, gʻarbda Odamtosh togʻlari orqali Gʻuzor tumani va shimolda Hisor tizma togʻlari orqali Qamashi tumani bilan chegaradosh.

Tuman viloyat markazi Qarshi shahri bilan avtomobil yoʻli orqali boʻlangan. Bugungi kunda tumandan Gʻuzor-Boysun-Qumqoʻrgʻon temir yoʻli oʻtgan. Dehqonobod tumani hududi tekislik-choʻl, adir va togʻmintaqalariga boʻlinadi. Tekislik choʻl mintaqalariga Xoʻjapullast,

Qizilcha, Oqirtma, Otqamar, Chuchchiquduq, G'aribota kabi hududlar kiradi. Bu joylarda buloqlar va doimiy oqar suvlar yo'q, bu yerda aholi ichimlik suvi sifatida va chorvalarini sug'orishda quduq suvlaridan foydalanadi [2; 6].

Iqlimi. Dehqonobod tumanida iqlim kontinental bo'lib, yozda juda issiq va quruq, qishda esa sovuq kechadi. Yillik yog'ingarchilik miqdori 200–400 mm atrofida. Asosan bahor va kuz fasllarida yog'in bo'ladi. Tog'li hududlar iqlimining salqinligi tufayli bu yerlar yaylov sifatida keng foydalaniladi.

Havoning o'rtacha yillik harorati +14,9 °C ni tashkil etadi va minimal -17 °C va maksimal +41 °C ni tashkil qiladi. Eng issiq oyning (iyul) o'rtacha maksimal harorati +35,9 °C, eng sovuq oyning (yanvar) o'rtacha harorati -2,7 °C. Yillik yog'ingarchilikning asosiy qismi noyabrdan maygacha yom'ir va qor shaklida (25 dan 74 mm gacha) tushadi. Yiliga o'rtacha yog'ingarchilik 334 mm. Qor qoplamining o'rtacha balandligi 11 sm, har 10 yilda tuproqning muzlashi maksimal chuqurligi 26 sm. Havoning o'rtacha yillik namligi 7,2 %. Suv sathidan bug'lanish yiliga 1100 mm. To'yingan sho'r suv oynasidan bug'lanish qatlami suvdan bug'lanish qatlamining 0,63-0,65 qismini tashkil etadi va yiliga 700 mm ga teng [3].

Gidrografiya. Tumanning asosiy suv manbalari G'uzordaryoning irmoqlari Katta O'ra va Kichik O'ra, Torqapchug'ay, Yakkabog' daryolarining irmoqlari boshlanadi va oqib o'tadi.

Katta O'ra daryosining uzunligi 113-km, u Chaqchar va Yakkabog' tog'lari tutashdigan Xarkush dovoni yaqinida dengiz sathidan 4 ming metrdan yuqori balandlikdan boshlanadi va yuqori oqimda Egrisuv nomi bilan oqadi.

Kichik O'ra daryosining uzunligi 117 km, Hisor tog' tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlari Boysun va Oqbosh tog'larida dengiz sathidan 2 ming metr chamasidagi balandlikdan boshlanadi.

Katta O'ra va Kichik O'ra daryolari Gumbuloq va Sho'rguzar qishloqlardan oqib o'tgach, tutashadi. Shu joyda 1968-yilda foydalanishga topshirilgan Pachkamar suv ombori joylashgan [4].

Dehqonobodning tog'li hududlarida bir qancha mayda ko'llar uchraydi. Xususan, Katta O'ra daryosining yuqori oqimidagi 1,5 km² maydonni egallab yotgan Turobbobo va Kichik O'radaryo boshlanishidagi Xo'jabulg'ur ko'kkari karst jarayoni natijasida hosil bo'lganligi tufayli ancha chuqur (16 m) ko'llardir. Buloqlar tog' oldi va tog' hududlarda juda ko'p, ular daryolarning to'yinishida salmoqli o'rin tutadi. Buloqlarning aksariyat qismi chuchuk suvli bo'lib, aholi uchun ichimlik suvi sifatida foydalaniladi [1].

Tuproq va o'simlik dunyosi. Tumanning tog' oldi va tekislik hududlarida asosan bo'z tuproqlar, ayrim joylarda toshloq tuproqlar uchraydi. Tog'li hududlar o'rmonzorlar, butazorlar, yovvoyi o't-o'lanlarga boy bo'lib, bu yerlar chorvachilik uchun keng foydalaniladi. Dashtlar sahrolarning o'simlik olami asosan o'ziga xos butalardan tarkib topgan. Pasttekisliklarda daraxt, buta, o'tsimon o'simliklar kuchli rivojlangan. To'qaylar uchun qamish va qandim o'simliklari xosdir. Tog' oldi tekisliklarining manzaralarida o'tlar o'sadi, daraxtlar yo'q butalar asosan suv oqadigan joylarda uchraydi. Bu yerda lolalar, ravoch, safsargul o'sadi. Balandroq joylashgan tekisliklar – bu qora-qo'ng'ir tuproqlardagi quruq, turli o't o'simliklari o'sadigan dashtlardir. Toshli joylarda butalar ham o'sadi – bodom, kavrak, turli o'tlar shular

jumlasidandir. Qir-adirlarda va past tog‘li joylarda asosan qimmatbaho archa turlari o‘sadi. Shuningdek, bargli daraxtlar turlari ham keng tarqalgan; do‘lana, chinor, jiyda, yovvoyi olma turlari, yong‘oqlar, pista, qayin, terak, olcha, turlari ham o‘sadi [1; 5].

Past tog‘li joylarda butasimon o‘simliklarga juda boy, archasimon butalar, tavolga, yovvoyi uzum, zira juda mo‘l. O‘tlarning turlari ham juda xilma-xil; ravoch, shovul, lola, va boshqa lolaguldoshlar, pskem piyozi (qimmatbaho dorivor o‘simlik). O‘rta baland tog‘larda na‘matak va boshqa butalar o‘sadi. Baland tog‘larda tuproqning faqat 30 % qismi o‘simliklar bilan qoplangan. O‘zbekiston o‘simliklar dunyosining xilma-xilligi, turlarga g‘oyat boyligining xalq xo‘jaligidagi muhim salmog‘i bilan O‘rta Osiyoda o‘ziga xos o‘ringa ega, o‘lkada 4500 ga yaqin yuksak o‘simlik turlari borligi ma‘lum. Yuqoridagi turlarga mansub bo‘lgan o‘simliklar Qashqadaryo viloyatida ham keng tarqalgan bo‘lib, 1200 dan ortiq turga mansubdir. Respublikada mavjud o‘simliklarning 314 turi O‘zbekiston “Qizil kitob”iga kiritilgan (2019 y). Viloyatda ushbu turlarning 70 dan ortig‘i tarqalgan. Jumladan, Qashqadaryo viloyatining tog‘li Dehqonobod tumanida 135 turga mansub o‘simliklar uchraydi. Ushbu o‘simliklar tumanning barcha mintaqalarida keng tarqalgan.

Hayvonot dunyosi. Viloyatning turli ekosistemalarida joylashgan o‘rmon xo‘jaliklari hududlari kamyob va yuqolib ketish xafi ostida turgan hayvonot turlari bilan ajralib turadi. Xususan Dehqonobod davlat o‘rmon xo‘jaliklari hududida O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan kamayib va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonot turlaridan tog‘ echkisi, tog‘ qoplani, qo‘ng‘ir ayiq, sug‘ur va kiyik kabi nodir hayvonlarning bosh soni nisbatan ko‘payganligi kuzatilmoqda hamda saqlab qolish, ko‘paytirish bo‘yicha o‘rmon xo‘jaliklari tomonidan har yili qo‘shimcha oziqlanish bo‘yicha yem-xashak tayyorlanib, yig‘ilgan xashakning ma‘lum miqdori hayvonot dunyosi yashaydigan hududlarda, ya‘ni tabiiy o‘rmonlar orasiga qoldiriladi hamda qo‘riqlash ishlari amalga oshiriladi. Bundan tashqari mazkur o‘rmon xo‘jaliklarida tabiiy sharoitlarida takror yetishtirish imkoniyati bo‘lmagan kamyob va yuqolib ketish xafi ostida turgan hayvonlar turlarini saqlab qolish maqsadida ana shu turdagi hayvonlarni uchratish uchun shart sharoit yaratish bo‘yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat o‘rmon xo‘jaligida yovvoyi hayvonlar turlaridan 13 xili (tog‘ echkisi, to‘ng‘iz, ayiq, tulki, bo‘ri, shoqol, yovvoyi mushuk, echkiemar, qoplon, va boshqalar) ro‘yxatga olingan. O‘rmon qo‘riqchilariga o‘zlariga tegishli bo‘lgan sarhatlarda o‘simlik dunyosiga zarar keltirish faoliyatlarini oldini olish bo‘yicha nazorat ishlarini olib borish huquqi berilgan [6].

Xulosa. Dehqonobod tumani tabiiy-geografik holatini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu hudud o‘zining tabiiy sharoitlari, relyef tuzilmasi, iqlimi, tuproq qoplami va gidrografik tarmog‘i bilan o‘ziga xos kompleks tizimni tashkil etadi. Tuman tog‘ oldi va tog‘li hududlarda joylashgan bo‘lib, bu yerda relyefning murakkabligi va balandlik farqlari iqlim va landshaft shakllanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Hududda yarim cho‘l va tog‘oldi landshaftlari ustunlik qiladi, bu esa qishloq xo‘jaligi faoliyatini, xususan, yaylov chorvachiligi va bog‘dorchilikning rivojlanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, Dehqonobodning iqlimi kontinental bo‘lib, yozda issiq va quruq, qishda esa sovuq bo‘ladi. Bu holat tabiiy resurslardan foydalanishda ehtiyotkorlik va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Tuman hududidan oqib o‘tuvchi kichik daryolar va buloqlar aholi xo‘jaligi uchun muhim suv manbai hisoblanishi aniqlandi. Yer resurslari, ayniqsa unumdor tuproq qatlamlari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda

katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, tog‘li hududlarda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan eroziya, suv tanqisligi va yer degradatsiyasi kabi muammolar ekologik barqarorlikka tahdid solishi aniqlandi.

Dehqonobod tumani tabiiy-geografik sharoitlarini chuqur o‘rganish, ularni to‘g‘ri baholash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hududning barqaror rivojlanish strategiyasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ilmiy tadqiqotlar, ekologik monitoring va hududiy rejalashtirish asosida amalga oshirilishi zarur. Ayniqsa, global iqlim o‘zgarishlari sharoitida hududning tabiiy xususiyatlarini chuqur anglash kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni oldindan bashorat qilish va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алиев Б. Дехқонобод тоғли-худудлари экологияси. Тошкент “Lesson press” нашри, 2016. 144 бет.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent. O‘zbekiston, 2017.–107 b.
3. Раҳимов Н., Аҳмаджонов В. Сув ресурсларини интеграл бошқариш ва ҳавзавий режалаштириш асослари. – Тошкент: “Info Capital Group”, 2019. – 104 б.
4. Холиков Қ. Ўзбекистон жанубидаги доривор ўсимликлар-Т. Мехнат, 1992
5. Shoyimov A.Z “Dehqonobod tumanining tabiiy-sanoat tizimini o‘rganish va suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish” magistrlik dissertatsiyasi Qarshi-2023.-84 b.
6. Ashurmahmatov S. I. “Dehqonobod tumani tog‘li hududlar ekologiyasi” // Educational Research in Universal Sciences VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 2 | 2023 P 69-73.